

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA KREATIV VA KIRITIK FIKRLASH TUSHUNCHALARINING ILMIY-PEDAGOGIK TALQINI.

TerDPI Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Ziyodullayeva Zuhro Faxriddin qizi

Ilmiy rahbar:Abduhalimova Yulduz Normurod qizi

Boshlang‘ich ta‘limda matematika va ona tili kafedrası o‘qituvchisi

Anotatsiya:Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ va kritik fikrlash tushunchalarini shakllantirishning pedagogik va psixologik talqini yoritilgan.Shuningdek o‘quvchilarni ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish usullari va uni amalyotda qo‘llash to‘g‘risida ham ma‘lumotlar berilgan.Kreativ va kritik fikrlashni rivijlantiruvchi omillar ketma-ketligi sanab o‘tilgan.O‘quvchilarning o‘zini o‘zi shakllantirish usullari va shaxsiy faoliyatida kreativ va kritik fikrlashning ahamiyati haqida ma‘lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar:Ijodiy fikrlash, kreativlik, kritik ,ijodiy faollik,pedagogik mahorat,pedagogik omillar,pedagogik kreativlik.

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida tayyorlanayotgan pedagog kadrlar vatanimizning ertangi kelajagini, taraqqiyotini buyuk davlat darajasiga ko‘taradigan ijodkor shaxslarni tarbiyalashda mustahkam poydevor rolini o‘ynaydi. Hozirda davlatimiz tomonidan o‘qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta‘minlash, ular faoliyatiga ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o‘quvchilarning dastlabki bilim egallash poydevori mustahkam bo‘lishi, barcha fanlarni o‘zlashtirishda qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tadbiriq etib kelinmoqda. Bugungi kunda jadallashib borayotgan taraqqiyot asrida o‘zib kelayotgan yosh avlodlardan yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun, avvalo, ta‘lim muassasalarida bilim olayotgan o‘quvchilarning kreativ faoliyatini (ijodiy faolligini) oshirishga e‘tiborni kuchaytirish zarur.

Jamiyatimizdagi barcha tashkilot, korxonalarda kreativ hamda innovatsion fikr yuritadigan, global muammolarni hal qilish uchun innovatsion bilim va yaratuvchanlik qobiliyatiga ega mutaxassis-kadrlarga tobora ehtiyoj kuzatilmoqda. Bunda ta‘limning asosiy roli o‘quvchilarni jamiyatda ko‘plab yutuqlarga erishish uchun lozim bo‘ladigan sifatli ta‘lim-tarbiya berish hisoblansa, kreativ fikrlash esa hozirgi yoshlarning rivojlanishi uchun zarur ehtiyojdir.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish” borasida uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari

imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish alohida takidlangan.¹ Bu singari vazifalarni amalga oshirish esa bugungi kunning yoshlaridan ijodiy faollik, yaratuvchanlik, mustaqil fikr yurita oladigan shaxs bo'lishni talab qiladi.

Ijodiy faollik nima? Kreativlik (ijodiylik) (lot. Creation-yaratuvchanlik, ijodkorlik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon; shaxsning yangi g'oyalarini yaratish va qabul qilishga tayyorligini ifodalovchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik o'quvchi faoliyatida mustahkamlanib, samarali natijalarga erishish, yangiliklar yaratish, o'z faoliyatining ijodiy yo'nalishlarini aniqlashga imkoniyat beradi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Shuningdek, kreativlik shaxsning zehni o'tkirlikni belgilab beradi. P.Torrens fikricha "Kreativlik" tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni bildiradi.

Fransuz vrachi E.D. Eskirol [16] aqli zaif bolalarning qobiliyatini, moyilligini, mo'tadil bolalar bilan solishtirishda testlardan foydalangan bo'lsa, uning yurtdoshi E.Syogan bolalar ta'limida fiziologik usul sifatida testlardan unumli foydalandi. Shuningdek E.Krepyelin (Amerika) [26], G.Ebingauz (Germaniya) N.Muslimov[30], N.Egamberdiyeva [17], D.Ro'ziyevlar [40] (O'zbekiston) esa pedagogik-psixologik nazorat qilish bo'yicha, pedagogik mahoratni, faoliyatni, kreativ faoliyatni mazmuni va uning har tomonlama xususiyatlarini ko'p qirrali izlanishlari orqali qisman bo'lsada amalga oshirganlar.

V.P.Bespalkoning [15] yuqori malakali mutaxasislarni oliy ta'lim tizimida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi va uning qismlari, mazmuni, mutaxasislarning tayyorgarlik darajasi va sifatini aniqlashning samarali usullari, shakllari, ta'limni o'zlashtirish sifatini aniqlash bo'yicha olib borgan ilmiy ishlari ayniqsa juda salmoqlikdir. Shuningdek V.P.Bespalko ta'lim tizimida pedagogik mahoratni, kreativlik faoliyat salohiyatini aniqlashda o'z fikr mulohazalarini bildiradi.

¹ 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

N.Egamberdiyeva [17] oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarni ilmiy-uslubiy salohiyatini o'rganish bilan birga, o'quvchi yoshlarni tarbiyalashda kompetentlik faoliyat, pedagogik mahorat hamda kreativlik salohiyati mazmunini qo'llash usullarini o'rganish yo'llarini ifodalaydi.

Respublikamizning yetakchi olimlari A.R.Xodjaboyev , Q.T.Olimov, O'.Tolipov, F.R.Yuzlikayev[47] va hakozi maktab o'quvchilarini tayyorlash jarayonida turli jihatlarni ilmiy uslubiy jihatdan asoslaganlar. Shu bilan birga pedagogik mahorat, faoliyatni kreativ faoliyatni tuzilishi mazmuni hamda yo'nalishlari bo'yicha, ilmiy asosli ravishda fikrlarini bildirganlar.

A.R.Xodjaboyev[45] ilmiy izlanishlarida o'quvchilarni ijodiy faoliyati, kompetensiyasi hamda kreativlik salohiyatini o'rganishda ilmiy-uslubiy fikrlarni bildirgan.

O'.Tolipov[44] o'z faoliyatida ta'lim tizimini texnologiyalarini tadbiiq etish yo'llarini takomillashtirish orqali tavsiyalar berish bilan birga, unga tegishli metodik qo'llanmalar yaratdi. O'quvchilarga bilim berish mobaynida o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini ko'tarish borasida pedagogik mahorat, faoliyat, kreativ faoliyat bo'yicha o'z ilmiy ishlarida tegishli mulohazalarni beradi.

I.V.Borzenkova, M.M.Kashanov , T.K.Klimenko , Ya.A.Ponamarev, Ye.I.Nikolayeva, A.E.Raximova [37] tomonidan kreativlikni shakllantirishning psixologik masalalari tadqiq etilgan.

Ma'lumki ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishda uning samarali bo'lishiga erishishda o'qituvchi yetakchi o'rinni egallaydi. O'quvchi yoshlarning turli bilimlarni o'rganishida, ta'lim berish bilan bir jarayonda tarbiya ham berib borishi hamda hayotga tayyorlashda ularning olib borayotgan ishlari va faoliyati beqiyosdir. Chunki maktab ta'limi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ta'limi mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha mas'ul shaxs hisoblanadi. Shu tufayli ta'lim tizimi bo'yicha sinfdan tashqari va maktabdan tashqari mashg'ulot va tadbirlar jarayonida o'quvchilarga berilgan didaktik tizimli bilimlarni o'zlashtirish hamda amaliy va ishlab chiqarish mashg'ulotlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz keng yoritib, chuqurlashtirib borish ko'lami va sur'atini belgilash, kreativlik salohiyatini takomillashtirish ta'lim tizimida muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O'z-o'zidan ma'lumki, o'qituvchilar oldida turgan vazifa ulardan o'zlarining didaktik ta'lim asosida, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni yuksak darajada shakllantirishni, kasbiy mahoratini, kreativ faoliyatini takomillashtirishni, uni tez suratlar bilan o'sib borayotgan pedagogik jarayon talablari darajasida bo'lishishga erishish o'z navbatida ularning pedagogik faoliyatini nazorat qilishni, uning natijalari asosida zaruriyat tug'ilganda mazkur kreativ faoliyatga tegishli tuzatishlar kiritishni ko'zda tutadi.

Shuning bilan birga kreativlik salohiyatini sifatlarini belgilovchi ilmiy asoslanishi hamda tizimli tarkibi sanaladi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Xo'sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi?

Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritish-larini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi.

Ularga o'qituvchi tomonidan ham maktab ma'muriyati tomonidan uyushtiriladigan to'garak, olimpiadalar, sinfdan tashqari tashkil etiladigan mashg'ulotlar kreativ va kritik yondashishga imkon beradi.

Bolalarda kreativ va kritiklikni rivojlantirishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish lozim deb topildi.

Pedagogik nazorat jarayonining didaktik shart sharoitlarini yaratish, uning maqsadga muvofiq shakl, tur, usul va vositalarini optimal tanlash asosida, uni samarali o'tkazish kreativ faoliyatni metodikasini ishlab chiqish, mazmunini boyitish borasida keyingi vaqtda, umumdavlat miqyosida jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ular jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6- noyabrdagi PQ-4884-son qarori "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi"² da qonunni misol qilib keltirish mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida mutaxassis kadrlarning kasbiy mahorati, faoliyati va kreativ faoliyati darajasini tahlil qilish, o'rganish va baholashda Vazirlar mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tasarrufidagi attestasiya va akkreditasiya markazi yetakchi mutaxassis xodimlari hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi mutaxassislarining amaliy ishlari, bu sohani davlat buyurtmasi sifatida rivojlanishiga bevosita yordam ko'rsatayotganligini takidlash joyizdir.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi, pedagogik mahorati, faoliyati va kreativlik va kritiklik salohiyatini nazorat qilishda quyidagi jihatlarni lozim deb topish mumkin:

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son qarori "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 7 noyabr. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2020 yil 9 noyabr', 44-son, 488-modda.

- a) ta'lim-tarbiya ishining aniq maqsadga yo'naltirilganligini, ilmiy jihatdan asoslanganligini hamda uning mazmunini to'g'ri tanlanganligini aniqlash;
- b) kasbiy mahoratni hamda kreativlik salohiyatni o'rganish natijasi sifatini aniqlash, rivojlanish bosqichlari, taraqqiyot darajasini belgilash hamda istiqboldagi yo'nalishlarini yoritish;
- v) boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ta'lim va tarbiyaning muqobil samarali usullarini ishlab chiqish, o'quvchi va o'qituvchilarning dunyo qarashini shakllantirishga pedagogik jamoaning barcha a'zolari orasida o'zaro ishonchga, do'stlikka, hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan yagona maqsad sari, intilish kabi vazifalarni aniqlashga e'tibor berish zarur.

O'qituvchining ijodkorligi u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. So'ngi yillarda ushbu holat "Pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda. Pedagogik kreativlik - pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning kreativlik va kritiklik salohiyati uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ faoliyat negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ va kritik faoliyatlarni bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. O'quvchining kreativ faoliyati an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o'ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;
- zakovatli bo'lish.

Har bir o'quvchining o'zini-o'zi rivojlantirishi va o'zini-o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Oddiy holatdan murakkab sari tashkil etiladigan metodni aniqlash o'quvchilarga (induktiv), murakkabdan oddiy holat sari muammoni hal etish o'quvchiga qiziqarli ham tez o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladigan (deduktiv) metod hisoblanadi.

Shuningdek maxsulli metod ham o'quvchilarga berilayotgan materiallar tushunarli, qiziquvchan, kasbga yo'naltiruvchi, ongli ravishda o'zlashtiruvchi metodlardan hisoblanadi. Maxsulsiz metod o'quvchida materiallar mazmuniga, uning yechimiga yetarli darajada tushunchaga ega emasligini bildiradi.

Innovatsion metod (inglizcha innovationas - kiritilgan yangilik, ixtiro) yangilikni joriy etish degan yangi metod, yangi usul, yangi ixtiro, yangi vosita, yangi g'oya va h.k.

Motivasion metod - ta'lim tizimini va uning barcha usul, shakl, vositalarini, omillarini, tamoyillarini ilmiy-uslubiy jihatdan kreativ faoliyatni takomillashtirish texnologiyalari yordamida amalga oshirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda o'quvchi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik kreativ va kiritik qobiliyatlari ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday shaxsda bo'lgani kabi o'quvchilarning kreativlik va kiritik qobiliyatlarga ega bo'lishlari uchun boshlang'ich sinf poydevor bo'ladi va kreativ va kiritik faoliyatlarni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda o'quvchining o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirilishi va o'qituvchi bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, kreativ yondashuv asosida darsni olib borishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (23.09.2020) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.
3. O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. -T: Akademnashr, 2017.- 47 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26-martdagi PQ-5040-son "ma'naviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori . / "Xalq so'zi" gazetasi, 2021 yil 27 mart, №2 (7842).
5. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. -T.: 2017, 39 b
6. ishlari", Toshkent, "O'qituvchi". 1983-y. B-9-128.
7. Jo'rayev U., Saxiyeva M. Innovasiya - taraqqiyot mezon. //Fan sohasida innovasiyalar: nazariya-amaliyot. Iqtidorli talabalar ilmiy-amaliy anjumani materialari. Toshkent, 12 may 2011 yil.
8. M.Ahadova. "O'rta Osiyolik mashhur olimlar va ularning matematikaga doir

9. Mackinnon D.V. Creativity: a multifaceted phenomenon // Creativity. - Amsterdam. London., 1970
10. Muhiddinova A.G. O'quv jarayonida nutq, faoliyati. -T.: "O'qituvchi", 1995.
11. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish-ning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok.... dis. -T.: TDPU, 2007. -315 b.
12. Muslimov N.A., N.Karimova Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. -T.: "Iqtisodiyot", 2012.